



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

## ONLAYN JURNALISTIKA TUSHUNCHASI TAHLILI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

### Zoxir Toshxo‘jayev<sup>1</sup>

<sup>1</sup>O‘zJOKU Raqamli media va internet jurnalistika kafedrasida o‘qituvchisi

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
Onlayn jurnalistika, kommunikatsiya, OAV, axborot, texnologiya, tahrir, fuqarolik jurnalistikasi, muharrir, video, audio, matn.	Ushbu maqolada milliy jurnalistikada ommalashib borayotgan onlayn jurnalistika tushunchasi o‘rganilgan. Internet jurnalistikasining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Онлайн-журналистика, коммуникация, СМИ, информация, технологии, редактирование, гражданская журналистика, редактор, видео, аудио, текст.	В данной статье исследуется понятие онлайн-журналистики, которая набирает популярность в отечественной журналистике. Раскрываются специфические особенности интернет-журналистики.
KEY WORDS	ABSTRACT
Online journalism, communication, media, information, technology, edition, citizen journalism, editor, video, audio, text.	This article explores the concept of online journalism, which is gaining popularity in national journalism. The specific features of Internet journalism are revealed.

**Kirish.** Zamonaviy texnologiyalarning kundan kunga rivojlanib borishi ular taqdim etayotgan imkoniyatlarning insoniyat hayotini to‘liq qamrab olishiga sabab bo‘lmoqda. Bugun hayotning biror bir jabhasini internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu tarmoq axborot almashishning global makoniga aylanib bo‘ldi. Axborot qidirgan kishi borki, internet oralaydi.

Internetning hayotimizga jadal kirib kelishi, barcha sohalar kabi jurnalistikani ham qamrab olishi ommaviy axborot vositalari haqida ilgari o‘rnatilgan va ommalashgan sohaga oid tushuncha va qarashlarni qayta ko‘rib chiqishga, an’anaviy kommunikatsiyalarga boshqa nuqtayi nazardan e’tibor qarashga turtki bo‘lmoqda [2; 6].

Internet kommunikatsiyaning har xil turlarini o‘zida mujassam etgani bilan ham ahamiyatlidir. Ularni ko‘rib chiqishda aloqani ta’minlaydigan texnologiyalar faoliyati qatorida bu vositalarning mohiyati va funksiyalariga ham ko‘proq e’tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Internet ta’sirida onlayn jurnalistikaning paydo bo‘lishi ijodkorlarga juda keng imkoniyatlarni yaratdi. Shu bilan birga axborot iste’molchilariga haqqoniy axborot topish jarayonini murakkablashtirib yuborgani ko‘zga tashlanmoqda. Bugun biror bir dolzarb voqea-hodisa haqida yuzlab, minglab qarashlarni jamlagan materiallar chop etilmoqda. Bu internet tarmog‘iga ulangan har qanday shaxs kasb-koridan qat’i nazar, axborot uzatish imkoniga ega ekani bilan bog‘liqdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda jamiyat deyarli to‘liq axborotlashgan va hamma axborot tarqatish imkoniga ega bo‘lsa-da, jurnalistika sohasida o‘qib, malaka oshirgan professional ijodkolarga ehtiyoj har qachongidan ham katta. Biroq, endi malakali kadr tayyorlashda internet texnologiyalari qo‘yayotgan talablarni ham inobatga olish zarur. Internet berayotgan imkoniyatlarni amalda qo‘llash axborot texnologiyalari orqali amalga oshiriladi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

**Natijalar.** Axborot texnologiyalari [1] deganda biror obyekt yoxud voqea-hodisa, jarayon, holat haqida yangi sifatga ega bo‘lgan axborotni olish uchun ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va uzatish maqsadida ishlatiladigan vosita, usullar va texnika majmuyini tushunamiz.

Bir so‘z bilan aytganda, internet – yangi media muhit, informatsiya olish va tarqatishning yangi vositasidir. U avvaldan amalda qo‘llab kelingan barcha kommunikatsiya vositalarini o‘zida qamrab olish xususiyatiga ega.

Shu bilan birga, onlayn jurnalistikaning an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan farqli jihatlari ham talaygina. Internetda faoliyat yuritadigan jurnalist an’anaviy jurnalistikaning qator talablariga, xususan, tasvirga olish, ovoz yozish, matbuot materiallarini ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan maxsus texnika, texnologiya, uskuna, jihozlar kabi vositalarga duch kelmaydi va ulardan foydalanishi shart emas [5].

An’anaviy ommaviy axborot vositalarida jurnalistik materialning omma e’tiboriga havola etilishi ko‘proq jamoaviy mehnat mahsuli hisoblanadi. Oddiygina gazetani misol qiladigan bo‘lsak, muallifning yozgan maqolasi nashr yuzini ko‘rgunicha kamida bir necha bosqichli tahrir jarayoni va korrekturadan o‘tkaziladi, bosh muharrir tasdig‘isiz nashrga berilmaydi. Chop etiladigan gazeta maketi tayyorlanib, tasdiqlanganidan keyin uni bosmaxonada bosishning murakkab jarayoni boshlanadi.

Radio va televideniya ham audio va televizion mahsulotlarni tayyorlash jamoaviy ish ekani kundek ravshan. Siz mahoratli radiojurnalist bo‘lishingiz mumkin, biroq mahsulotingiz efirga berilgunicha ovoz yozishga tayyorgarlik ko‘rishdan boshlab, to efirga uzatiladigan tayyor mahsulot holiga kelgunicha bir necha bosqichli murakkab jarayon, turli darajadagi mutaxassislar ishlovi hamda mutasaddilar ko‘rigidan o‘tadi.

Bu holat televideniya yanada murakkab. Muallif telemahsulot tayyorlashda tasvirga olishga hozirlik ko‘rish va bevosita videomahsulotni yozib olish jarayonining o‘zida muharrir, rejissyor, operator, chiroq ustasi, dekorator, texnik xodim, ma‘mur kabi bir necha mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashiga to‘g‘ri keladi.

Undan keyingisi montaj jarayoni bo‘lib, telemahsulotni tayyor holga keltirish uchun uning turi, janri va boshqa omillariga qarab, montaj ustasi, murakkab montaj ustasi, grafikachi, dizayner, axborot texnologiyalari mutaxassisi singari yana bir qancha soha vakillarining turli xizmatlaridan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

Ya’ni, bir so‘z bilan aytganda, an’anaviy ommaviy axborot vositalarida mahsulotlar ishlab chiqarish o‘zida bir necha mutaxassis, texnika va uskunalari, murakkab jarayonlarni qamrab olgan va o‘ziga yarasha texnik ta’minot va xarajatlarni talab qiladigan tizimga bog‘langan.

An’anaviy jurnalistikada mediamahsulot tayyorlash ko‘p bosqichli murakkab jarayonga bog‘liq bo‘lsa, undan farqli o‘laroq, onlayn jurnalistikaning tez ommalashishiga individual jurnalistikaning vujudga kelishi zamin yaratdi. Bu xususiyat internet jurnalistikani an’anaviy jurnalistikadan ajratib turadigan jihatlardan biri hisoblanadi.

Endi internet orqali istalgan kishi axborot ishlab chiqaruvchi va tarqatuvchiga aylana olish imkoniga ega. O‘z-o‘zidan jamoa bo‘lib ishlash, maxsus texnikalardan foydalanish kabi talablar ham ahamiyatini yo‘qotadi. Buning natijasida “bloggerlik” [6], “individual jurnalistika”, “fuqarolik jurnalistikasi” [7] kabi yo‘nalishlar yuzaga keldi va juda tez ommalashib borayotgani kuzatilyapti.

Bugungi kunda onlayn jurnalistikaning asosiy xususiyati yangilik va xabarlarini tez tarqata olish bilan belgilanmoqda. Aynan tezkorlik bobida



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

internet jurnalistikasiga yetadigani topilmaydi. Avvaliga saytlar axborotni “qaynoq” holatda yetkazish bo‘yicha an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan ildamlab ketgani kuzatilgan bo‘lsa, bugungi kunda onlayn jurnalistikaning yangi tarmog‘i sifatida ommalashib borayotgan ijtimoiy tarmoqlar eng tezkor axborot tarqatuvchi vositaga aylandi.

Jamiyatda, atrof-muhitda yuz berayotgan kutilmagan voqea-hodisalardan olingan vizual axborotlarni omma e‘tiborini jalb qiluvchi kontent sifatida ijtimoiy tarmoqlar orqali tez tarqatish ko‘p kuzatilayotgan holat. Buning uchun avvalgidek voqea joyiga jurnalist yoki blogerning kelishini kutish shart emas. Internetga ulangan smartfonga ega har qanday shaxs yuz berayotgan voqea-hodisani videoga olib, uni ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, guruhlari orqali tarqatishi odatiy holga aylanib ulgurgan. Ayniqsa, favqulodda vaziyatlarda oddiy kishilar tomonidan olingan video tasvirlardan rasmiy ommaviy axborot vositalari ham foydalanayotgani aynan tezkorlik bobida ijtimoiy tarmoqlarning ustunligini isbotlab bermoqa.

Axborot tarqatishdagi tezkorlik uning sifati, xolisligi, aniqligiga putur yetkazmasligi kerak. Onlayn jurnalistika va, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zi guvohi bo‘lib turgan voqea-hodisalar haqida video, foto, ovoz yoki oddiygina matn tarzida axborot tarqatayotgan oddiy fuqaro professional jurnalistika qoidalarini bilmaydi va ulardan xolislik, aniqlik, tahlil, faktcheking kabi sohaga doir xususiyatlarni qo‘llashini talab ham qila olmaymiz.

Onlayn jurnalistikaning asosiy ustunliklaridan biri axborotni tezkor almashish bo‘lsa-da, faktlarning aniqligi har qanday holatda ham tezkorlikdan muhim hisoblanadi [3].

Hozirgi davr axborot iste‘molchisi uchun tanlov imkoniyati yuqori. O‘zi qiziqqan mavzudagi

materialni istasa gazetadan olib o‘qisin yoki radiodan tinglasin yoxud televizorda tomosha qilsin. Biroq kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ularning aksariyati axborot ehtiyojini onlayn jurnalistika vositalari, yanada aniqroq qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlardan onlayn tarzda “oqib” kelayotgan ma‘lumotlar bilan qondirmoqda.

Qo‘limizdagi smartfon gazetaga obuna bo‘lish yoki uni kioskalarga borib sotib olish, radio eshittirishni tinglash yoki televizor tomosha qilish uchun qulay sharoit hosil qilishdan ozod qildi. Smartfon internetga ulangan bo‘lsa bas, faqat berilayotgan informatsiya bilan cheklanmaymiz, o‘zimizga kerakli va qiziqarli bo‘lgan har qanday axborotni turli shakl va formatlarda, istalgan joyimizda, hamma vaqt tanlab, qidirib topa olamiz. Lo‘ndasini aytganda, raqobat maydonida eng sara, tezkor va ishonchli materiallarga talab doimo yuqori bo‘ladi [8]. Demak, har qanday ommaviy axborot vositasi ham ana shu talabga javoban shiddat va mas‘uliyat bilan ishlashi shart, aks holda, bu maydonda yutqazishi mumkin.

Onlayn jurnalistikaning o‘ziga xos muhim xususiyati bor. Ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan jurnalistlarning asosiy maqsadi ko‘proq auditoriya tyig‘ish va hajmini muntazam oshirib borish, iste‘molchilar e‘tiborini tortish orqali o‘zlari faoliyat ko‘rsatayotgan informatsion platformalar ommaviyligi va nufuzini ko‘tarish hamda trendga chiqarishga qaratilgan.

Bunda “tesha tegmagan” yangiliklarni topa oladigan, dolzarb mavzularni farqlay oladigan, xabarlarini e‘tiborni jalb qiluvchi shakl va uslubda taqdim qila oladigan tezkor jurnalistlar ko‘proq qadrlanadi. Mahoratli jurnalist oddiygina xabarni ham topqirligi tufayli maqbul shakldagi sarlavha tanlash orqali “jozibador” kontentga aylantira oladi.

Axborot texnologiyalari bugungi kunda jurnalistlarning turli format va janrdagi



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

kontentlarni tayyorlashida muhim omil bo‘lmoqda. Bu iste‘molchilarning har qanday talabiga moslashish imkonini berish bilan birga, ularga kutilmagan shakldagi kontentlarni havola etish imkoniyatini yaratmoqda.

Ayniqsa, saytlar orqali axborot tarqatishda multimedaviy gipermatn [4; 84] shaklidan keng foydalanilayotgani auditoriga yoritilayotgan mavzu bo‘yicha to‘liq ma‘lumot olishiga xizmat qilish bilan birga, ularning e‘tiborini jalb qilib, qiziqishni oshirishga xizmat qilmoqda.

Interaktivlik va multimedaviylik onlayn jurnalistikani an‘anaviy ommaviy axborot vositalaridan ustunligini ta‘minlab turgan xususiyat ekanini alohida ta‘kidlash lozim. Zero, multimedaviy gipermatnga asoslangan media

mahsulot matn, ovoz, tovush, foto, grafika, video kabi shakllardan tarkib topgan axborotlar birikmasini o‘zida birlashtiradi.

**Muhokama va xulosa.** Bugungi kunda saytlar va ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlar tahlili vizual janrlar yordamida tayyorlangan yangilik va xabarlar, ya‘ni onlayn jurnalistika tili bilan aytganda, media kontentlar auditoriya tomonidan juda tez va oson qabul qilinmoqda. Aynan mana shu xususiyat borasida boshqa biror ommaviy axborot vositasi internet jurnalistikasiga teng kela olmaydi. Onlayn jurnalistikaning o‘ziga xos xususiyati har qanday media mahsulotlarni iste‘molchi va foydalanuvchilarga eng samarali, ta‘sirli, qiziqarli va foydali shakllarda yetkazib berishdan iborat.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Акопов А.И. Глобальное средство массовой информации // Мир медиа XXI, 1999. – №1.
2. Лукина М.М., Фомичева И.Д. СМИ в пространстве Интернета: Учебное пособие факультета журналистики МГУ им. М.В. Ломоносова, 2005.
3. Муратова Н. Журналистикада медиа ва ахборот саводхонлиги. Қўлланма. – Тошкент, 2019. – 76.
4. Нурутдинова М. Мультимедиавий жанрлар таснифи. – Тошкент, 2021. – 84-б.

#### Internet manbalari:

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Internet-jurnalistika>
2. <https://www.lex.uz/acts/83472>
3. <https://www.britannica.com/story/citizen-journalists>
4. <https://uzbovozi.uz/?p=1492&lang=uz>